



---

**BOLA TA'LIM-TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI**

---

*Qo'iratbaeva Dilnaz Erpolat qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Yuridika fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotaciya:** Ushbu maqolada oilaviya munosabatlar, ya'ni oilada ota-ona va farzandlar o'rtasida munosabatlar keltirilgan. Shuningdek, oilaviy nizolar sababli bolalarga salbiy ta'sirlar, ota-onalarning bola tarbiyasiga ahamyat berish majburiyati va yoshlarning ongida oila muqaddas dargoh ekanligini tushuntirish, oilada bir-birlarini o'zaro hurmat qilish hissilari aytib o'tilgan, va albatta, bola tarbiyasida, uning o'sib voyaga yetishida ota-ona katta rol oynashi aks ettirilgan.

**Abstract:** This article presents family relations, that is, relations between parents and children in the family. Also, the negative effects on children due to family conflicts, the obligation of parents to pay attention to child education, and to explain in the minds of young people that the family is a sacred place, the feelings of mutual respect in the family, and of course, in child education, its it is shown that parents play a big role in growing up.

**Аннотация:** В данной статье представлены семейные отношения, то есть отношения между родителями и детьми в семье. Также негативное влияние на детей из-за семейных конфликтов, обязанность родителей уделять внимание воспитанию детей и объяснять в сознании молодежи, что семья – это священное место, чувства взаимного уважения в семье, Конечно, в воспитании детей показано, что родители играют большую роль в взрослении.

**Kalit so'zlar:** oila, ota-ona, tarbiya, bola tarbiyasi, oilaviy muhit, yoshlar tarbiyasi, Konstitutsiya, oilaviy nizolar, ta'lim-tarbiya, ota-ona majburiyatlari, bolalar majburiyatlari, hurmat.

**Key words:** family, parents, upbringing, child upbringing, family environment, youth upbringing, Constitution, family conflicts, education and upbringing, parental obligations, children's obligations, respect.

**Ключевые слова:** семья, родители, воспитание, воспитание детей, семейная среда, воспитание молодежи, Конституция, семейные споры, воспитание и воспитание, родительские обязанности, обязанности детей, уважение.



Oila bu biz uchun eng muqaddas dargoh hisoblanadi. Biz bu yorug' dunyoga kelib ko'z ochganimizda oilamiz bag'rida, onamiz quchog'ida va otamiz himoyasida katta bo'lamiz. Ota-onalarimiz katta maqsadlar bilan farzandlarini ertangi kuni davlat rivojiga hissa qo'shib, kelajagi porloq barkamol inson bo'lib ulg'ayishi uchun yaxshi fazilatlarni bo'yiga singdirib, yaxshi tarbiya berishga harakat qiladi. Lekin, bugungi kunda jamiyatimizda bazi qo'shtirnoq ichidagi oilalar ham bor, ularda na ota-onaga hurmat, na farzandga muhabbat hissi bor. Bu kabi holatlar asosan, oilalarda mustahkamlik yo'qligi, har xil sabablar bilan kelib chiquvchi nizolar, ota-onalarning ajrimlari tufayli tirik yetim bo'lgan begunoh bolalar, yoki voyaga yetish chog'ida yonidagi o'rtoqlari bilan buziq yo'llarga kirib, ota-onalarning e'tiborsizligi oqibatida yomon illatlarga qo'shilib qolgan bolalarni ham uchratishimiz mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tamonidan ham oilalardagi tinchlik-hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni vatanga muhabbat hissi bilan tarbiyalash, kelajakda jamiyatga aralashib, o'z o'rniga ega bo'lgan yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida bir qancha farmon va farmoyishlar chiqarmoqda.

“Men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor berardim. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham o'zimning alohida munosabatim bor. Har bir nevaramni alohida xarakterini bilaman, niyatini bilaman, istagini bilaman.” -degan so'zlarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oilaning qanchalik ulug'ligi, komillikka yetishish uchun eng oldi bilan oila tarbiyasi katta ahamiyatga ega ekanligini va shu asnoda bitta martaba zikr o'tdi. Darvoqe, oilaviy tarbiyada ota-ona roli farqli. Bola tarbiyasi bilan shug'ullanish ota-ona uchun eng boshli vazifa ekanligi ham barchamizga ma'lum. Shuni ham aytib o'tishlik zurur, qay bitta oilada tarbiya, mustahkamlik, tinchlik-hamjihatlik hukm suradigan bo'lsa, ertangi kunimizda davlatning rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'g'il-qizlarimiz o'sha oilalardan yetilishib chiqadi.<sup>1</sup>

Qonunchiligimizga asoslansak, oila munosabatlarida, oilalardagi nizolarni hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi katta ahamiyatga egadir. Farzandlarning ota-onalari oldidagi majburiyatlari, bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari, ota-ona va bola munosabatlari, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari, oilada ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquqiy munosabatlari aynan shu hujjatda keltirilgan.

---

<sup>1</sup> Qo'ng'irotoeva Dilnoz Erpolat qizi. (2023). OILA-JAMIYATNING ASOSIY BÒG'INI. GOLDEN BRAIN, 1(1), 77–81. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7521692>



Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.<sup>2</sup>

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”<sup>3</sup> – dedi Prezidentimiz.

Hurmatli Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, davlatning ertangi kungi rivoji, yurtimiz kelajagi bu yoshlarning qo'lida, shu bois biz vatanimizning gullabyashnashi uchun birinchi navbatda ana shu kelajak yoshlar tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz kerak. Ya'niy, bu aynan oilada beriladigan tarbiya, oiladagi muhit, o'sib kelayotgan, shu oilada tarbiya olayotgan bolalarga, ota-onalarinning bolalar tarbiyasiga befarq bo'lmasligi, har bir bolani vatanga muhabbat hissi bilan ulg'aytirish singari masalalarni qamtib olganlikda ko'rinadi.<sup>4</sup>

Oila muqaddas dargoh ekanligini tushungan holda, shu oilaning barpo bo'lishiga asoschilar bo'lgan ota-onalarni farzandlari deya, qanday ter to'g'ib, voyaga yetkazish uchun qilgan mehnatlariga yarasha har bir bola, har bir farzand, har bir yosh katta hurmat ila ota-onalariga halol mehnat qilib, ular oldidagi vazifa va majburiyatlarini o'tab berishi lozimdir. Bu kabi fikirlarni ko'plab olimlar, allomalar va ota-bobolarimiz o'zlarining asarlarida, kitoblarida, she'riyatida ham aytib, nasihat qilib ketgan. Masalan, Kayqovus o'z qalamiga mansub bo'lgan «Qabusnoma» asarida shunday degan ekan:

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-104720> O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 65-modda

<sup>3</sup> 2017-yili 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi» mavzuidagi anjumanda Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqi

<sup>4</sup> Qo'ngiratbaeva Dilnaz Erpolat qizi. (2023). OILA VA BOLA TARBIYASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 63–66. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/510>



« Har farzandki, oqil va dano bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehri haqini ado qilmoqdan holi bo'lmagusidir. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo'lgay va ham farmon bo'lgay, ota-onalarning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoni senga yaxshilik o'rgatmoqdur. Ey, farzand, shu uchun ota-onangni ranjitmagin...»<sup>5</sup>

Bir so'z bilan aytganda, ota-onalarning bola tarbiyasida o'rni katta. Ertangi kuni kuchli rivojlangan davlat va adolatli fuqarolik jamiyatta yashashimiz uchun eng avvalo shu jamiyat va davlatga sadoqatli xizmat qiluvchi, ulug' maqsadlar bilan kelajakka shahdam qadam qo'yuvchi yosh avlodlarni tarbiyalab o'stirishda ulaning tarbiya o'chog'i bo'lgan muqaddas dargoh oila hisoblanadi, ota-ona bu borada farzandlarini qo'llab-quvvatlab turuvchi tirgak bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'ng'irotoeva Dilnoz Erpolat qizi. (2023). OILA-JAMIYATNING ASOSIY BÒGINI. GOLDEN BRAIN, 1(1), 77–81. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7521692>
2. <https://lex.uz/docs/-104720> O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 65-modda
3. 2017-yili 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzuidagi anjumanda Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqi
4. Qo'iratbaeva Dilnaz Erpolat qizi. (2023). OILA VA BOLA TARBIYASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 63–66. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/510>
5. Kayqovus «Qabusnoma» T. «O'qituvchi» 2006-y. 36-v.

<sup>5</sup> Kayqovus «Qabusnoma» T. «O'qituvchi» 2006-y. 36-v.